Xaknazarova Xurshidabonu Kenjayevna	
FLUTTER ASOSIDAGI O'SIMLIKLARNI TANISH VA SOG'LOMLIGINI TAHLIL QILISH	467
Ravshanov Sanjar Tolibjonovich	
FERMERLAR UCHUN MOBIL ILOVALAR: AXBOROT, TAHLIL VA MASLAHATLAR.....	471
Aktamova Vasila Uktamovna, Axtamova Umida Uktamovna	
IOT VA AI INTEGRATSIYASI ORQALI SUVNI TEJASH.....	475
Raxmatullayeva Nozima Shodiqulovna	



O'TISH DAVRIDAGI IQTISODIYOTDA KICHIK KORXONALARNING LOGISTIKA TIZIMI

Farhod Mahmudovich Tirkashev

SamDVMCHBU Iqtisodiyot fakulteti assistenti

ORCID 0009-0005-2339-6225

ftirkashev21@gmail.com

Islomjon Jamshedovich Jamshedov

Iqtisodiyot yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'tish davrida bo'lgan iqtisodiyot sharoitida kichik korxonalar faoliyatining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lgan logistika tizimining tashkil etilishi, rivojlanishi va takomillashuvi masalalari chuqur tahlil qilinadi. O'zbekiston misolida o'tish davrining o'ziga xos iqtisodiy xususiyatlari, kichik biznes subyektlarining rivojlanishidagi rolga e'tibor qaratilib, aynan logistika tizimi orqali resurslar oqimini boshqarish, mahsulot yetkazib berish zanjirini optimallashtirish va xarajatlarni kamaytirish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi.

Tadqiqotda kichik korxonalar uchun logistika tizimini yaratishda uchraydigan muammolar – infratuzilma yetishmovchiligi, moliyaviy resurslarning cheklanganligi, kadrlar malakasining pastligi kabi omillar tahlil qilinib, ularni bartaraf etish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Logistika faoliyatini to'g'ri tashkil qilish kichik korxonalarni ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardoshligini oshirish, mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash hamda umumiy iqtisodiy samaradorlikni ta'minlashda muhim vosita ekanligi asoslab berilgan.

Maqolada, shuningdek, raqamli texnologiyalar va avtomatlashtirilgan tizimlarning kichik korxonalar logistikasiga tatbiq etilishi, bu yo'nalishdagi xalqaro tajribalar va ularni mahalliy sharoitga moslashtirish istiqbollari haqida ham fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: o'tish davri iqtisodiyoti, kichik biznes, logistika tizimi, resurslardan foydalanish, samaradorlik, transport-logistika xizmatlari, raqobatbardoshlik, xarajatlarni optimallashtirish.

Abstract: This article provides an in-depth analysis of the organization, development, and improvement of the logistics system as one of the key areas of activity for small enterprises in a transitional economy. Using Uzbekistan as a case study, the paper examines the specific economic characteristics of the transition period and emphasizes the role of small business entities in economic development. It highlights the potential of logistics systems to manage resource flows, optimize supply chains, and reduce costs.

The study analyzes common challenges faced by small enterprises in building logistics systems, including infrastructure shortages, limited financial resources, and low workforce qualifications. Practical recommendations are proposed to address these issues. It is substantiated that effective organization of logistics can significantly enhance the competitiveness of small enterprises in domestic and foreign markets, improve customer service quality, and increase overall economic efficiency.

The article also discusses the integration of digital technologies and automated systems into small business logistics, along with international best practices and their potential adaptation to local conditions.

Key words: transitional economy, small business, logistics system, resource utilization, efficiency, transport and logistics services, competitiveness, cost optimization.

Аннотация: В данной статье подробно анализируются вопросы организации, развития и совершенствования логистической системы как одного из ключевых направлений деятельности малых предприятий в условиях переходной экономики. На примере Узбекистана рассматриваются особенности переходного периода и роль субъектов малого бизнеса в экономике, акцентируется внимание на возможности управления потоками ресурсов, оптимизации цепочки поставок и снижения издержек именно за счёт эффективной логистики.

В исследовании проанализированы основные проблемы, возникающие при формировании логистических систем для малых предприятий, такие как недостаток инфраструктуры, ограниченность финансовых ресурсов и низкий уровень квалификации кадров. На этой основе предложены практические рекомендации по их преодолению. Обоснована роль логистической деятельности как важного инструмента повышения конкурентоспособности малых предприятий на внутреннем и внешнем рынках, улучшения качества обслуживания клиентов и обеспечения общей экономической эффективности.

Также в статье рассматриваются вопросы внедрения цифровых технологий и автоматизированных систем в логистику малых предприятий, анализируется международный опыт в данной сфере и возможности его адаптации к местным условиям.

Ключевые слова: переходная экономика, малый бизнес, логистическая система, использование ресурсов, эффективность, транспортно-логистические услуги, конкурентоспособность, оптимизация затрат.



KIRISH

Bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayoni har bir mamlakatda o'ziga xos iqtisodiy, ijtimoiy va tashkiliy o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. Ayniqsa, O'zbekiston kabi o'tish davridagi iqtisodiyotga ega mamlakatlarda kichik biznes subyektlarining shakllanishi va rivojlanishi iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Kichik korxonalar nafaqat yangi ish o'rinlarini yaratadi, balki hududiy iqtisodiyotni rivojlantirish, aholining bandligini oshirish va innovatsion faoliyatni kengaytirishda ham muhim omil hisoblanadi.

Shu bilan birga, kichik korxonalar faoliyatining samaradorligi ko'p jihatdan ularning logistika tizimini to'g'ri tashkil etishiga bog'liq. Logistika bu mahsulot va xizmatlarning ishlab chiqaruvchidan iste'molchigacha yetib borish jarayonidagi material, moliyaviy va axborot oqimlarini boshqarish tizimi bo'lib, u korxona raqobatbardoshligini oshirishda asosiy vositalardan biri sanaladi.

O'tish davrida kichik korxonalar ko'plab iqtisodiy va tashkiliy muammolarga duch keladi: infratuzilmaning rivojlanmaganligi, moliyaviy resurslarning yetishmasligi, malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyoj va zamonaviy texnologiyalar bilan yetarlicha ta'minlanmaganlik shular jumlasidandir. Ayniqsa, logistika faoliyatini samarali tashkil etish bo'yicha mavjud imkoniyatlar va mavjud cheklovlar chuqur tahlil etilishni talab qiladi.

Ushbu ishda aynan o'tish davridagi iqtisodiy sharoitlarda kichik korxonalar logistika tizimining holati, uni rivojlantirish yo'llari, duch kelinayotgan muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha taklif va tavsiyalar ko'rib chiqiladi. Shuningdek, logistika tizimida zamonaviy texnologiyalarning roli va xalqaro tajribani mahalliy amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlari tahlil qilinadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARXI

Kichik biznesning iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni va logistika tizimining ahamiyati ko'plab mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan chuqur o'rganilgan. Xususan, o'tish davridagi iqtisodiyotda kichik korxonalar faoliyatini tashkil etish, ularning samarali ishlashini ta'minlashda logistika tizimining o'rni alohida e'tiborga loyiqdir. Mashhur nemis iqtisodchisi Donald J. Bowersox va uning hamkorlari tomonidan yaratilgan "Supply Chain Logistics Management" asarida logistika tizimining zamonaviy korxonalar, jumladan kichik biznes subyektlari uchun strategik ahamiyati tahlil qilinadi. Mualliflar logistika orqali qiymat zanjirini optimallashtirish, xarajatlarni kamaytirish va mijoz ehtiyojlariga tezkor javob qaytarish imkoniyatlarini keng yoritgan. Shuningdek, amerikalik tadqiqotchi Martin Christopher o'zining "Logistics & Supply Chain Management" nomli asarida raqobatbardosh ustunlikka erishish uchun samarali logistika va ta'minot zanjiri boshqaruvining muhimligini asoslab bergan. Uning fikricha, kichik korxonalar ham moslashuvchan va innovatsion logistika yechimlarini joriy etish orqali bozor talablariga tezda moslasha oladi. Rossiyalik olim L.B. Mirotn va V.S. Sergeevlar esa o'zlarining "Logistika" nomli darsliklarida postsovet mamlakatlaridagi iqtisodiy o'zgarishlar fonida logistika tizimini shakllantirishning muammolari va amaliy yondashuvlarini tahlil qilgan. Ayniqsa, kichik va o'rta biznes subyektlari uchun logistik infratuzilmani rivojlantirishga alohida urg'u berilgan.

O'zbekistonlik olimlardan I.X. Abdurahmonov, Sh.S. Xodiev, R.A. Musurmonov va boshqalar kichik biznesni rivojlantirishda logistikaning tutgan o'rni, ayniqsa transport-logistika infratuzilmasini takomillashtirish yo'nalishlarida tadqiqotlar olib borganlar. Ularning ilmiy ishlarida logistika tizimi kichik korxonalar faoliyatining asosiy tarkibiy qismi sifatida baholangan. S.S. Gulomov va A.X. Xodjayevlarning iqtisodiy islohotlar jarayonida kichik biznesni qo'llab-quvvatlash, uni samarali tashkil etishda logistik xizmatlar tizimini takomillashtirishga oid ishlari mavzuga bevosita daxldor hisoblanadi. Ular O'zbekistonda mavjud bo'lgan logistika infratuzilmasi, tashkiliy va huquqiy asoslar, shuningdek, xorijiy tajribalarning mahalliyashtirilishi bo'yicha muhim tavsiyalar bergan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda o'tish davridagi iqtisodiy sharoitlarda kichik korxonalarning logistika tizimini tahlil qilish va takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish maqsadida bir qator quyidagi ilmiy-tahliliy yondashuvlar, solishtirma tahlil (komparativ analiz), empirik usullar, sistemali yondashuv, SWOT-tahlil, grafik va diagrammaviy usullar metodologik yondashuvlaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish sharoitida iqtisodiy islohotlar natijasida kichik va o'rta biznes subyektlarining roli keskin oshdi. Ayniqsa, O'zbekiston tajribasida kichik korxonalar nafaqat iqtisodiy o'sish, balki bandlik darajasini oshirish, ijtimoiy muammolarni bartaraf etish va import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish orqali muhim funksiyalarni bajarmoqda. Biroq bu korxonalar samarali faoliyat yuritishida hal qiluvchi omillardan biri bu logistika tizimining to'g'ri tashkil etilishidir.



Logistika bu mahsulot va xizmatlarning manbadan iste'molchiga yetib borishini ta'minlaydigan kompleks jarayon bo'lib, u nafaqat transport va saqlash funksiyalarini, balki ta'minot, axborot oqimi, buyurtmalarni boshqarish, mijozlarga xizmat ko'rsatish va boshqa ko'plab jarayonlarni ham qamrab oladi. O'tish davrida iqtisodiy tizimda bu soha hali to'liq shakllanmagan bo'lib, kichik korxonalarning logistika salohiyati ko'plab cheklorlar bilan yuzma-yuz kelmoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, kichik korxonalar o'z logistika faoliyatini ko'pincha resurslar yetishmovchiligi sharoitida olib borishmoqda. Transport vositalarining eskirganligi, omborxona binolarining texnik holatining pastligi va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarining mavjud emasligi bu yo'nalishda asosiy muammolar sifatida e'tirof etildi.

Hozirgi kunda, kichik korxonalarning 39% transport vositalarining texnik holatini past deb baholagan. Shuningdek, 50% korxonalarda omborlar yetarli darajada jihozlanmagan, ya'ni mahsulotlarning xavfsiz va optimal saqlanishi kafolatlanmaydi. Ushbu muammo mahsulot sifatiga, ishlab chiqarish ritmiga va nihoyat mijozlarga xizmat ko'rsatish tezligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Logistika tizimining samaradorligi, avvalo, inson kapitali ya'ni malakali logistiklar, boshqaruvchilar va texnik xodimlar mavjudligiga bog'liq. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, kichik korxonalar orasida logistikaga ixtisoslashgan mutaxassislar yetishmasligi dolzarb muammo bo'lib qolmoqda.

Aksariyat korxonalar logistika faoliyatini umumiy menejment doirasida olib boradi, ya'ni alohida logistika bo'limi mavjud emas. Bu esa logistika jarayonlarida uzilishlar, noto'g'ri rejalashtirish va vaqt yo'qotishiga olib kelmoqda. Shuningdek, avtomatlashtirilgan axborot tizimlarining yo'qligi yoki cheklangan darajada joriy etilganligi ham ish samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Kichik korxonalarda logistika bilan bog'liq xarajatlarning umumiy xarajatlarning 20–25 foizini tashkil etmoqda. Bu juda yuqori ko'rsatkich bo'lib, daromadlilik darajasining pasayishiga olib kelmoqda. Ayniqsa, xom ashyo va tayyor mahsulotlarni uzoq masofalarga yetkazib berish, saqlash xarajatlari, oraliq vositachilar xizmat haqi logistika xarajatlarning asosiy qismini tashkil qiladi.

Shuningdek, logistika bo'yicha tashqi subpudratchilar (outsourcing) xizmatlaridan foydalanish ham xarajatlarni oshirmoqda.

Polsha, Turkiya va Xitoy kabi mamlakatlarda kichik biznesni qo'llab-quvvatlash siyosatida logistika tizimiga alohida e'tibor qaratiladi. Xususan, davlat tomonidan yaratilgan logistika markazlari, soliqliq imtiyozlari, subsidiya va grantlar orqali logistik infratuzilma kuchaytiriladi. O'zbekistonda ham bu yo'nalishda dastlabki bosqichdagi ijobiy siljishlar mavjud bo'lsada, hali ham bu tizim to'liq shakllanmagan. Mahalliy sharoitda logistika xizmatlarining narxi yuqori, sifati esa barqaror emas.

1-jadval. Kichik korxonalarda logistika tizimi bo'yicha muammolar taqsimoti (so'rovnoma asosida).

№	Tahlil mezonlari	Yuqori muammo (foiz)	O'rta muammo (foiz)	Muammo yo'q (foiz)
1	Transport vositalari holati	39%	39%	22%
2	Omborxona texnik jihozlanishi	50%	35%	15%
3	Malakali logistik mutaxassislar yetishmovchiligi	41%	41%	18%
4	IT tizimlarining mavjudligi	60%	30%	10%
5	Logistika xarajatlarning yuqoriligi	65%	25%	10%

Manba: Tadqiqot doirasida 50 ta kichik biznes vakillari o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma asosida.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston iqtisodiyoti bozor munosabatlariga o'tish jarayonida bo'lishiga qaramay, kichik korxonalarning iqtisodiy faolligi, bandlikka qo'shayotgan hissasi va raqobat muhitida tutgan o'rni sezilarli darajada oshib bormoqda. Biroq ularning barqaror rivojlanishini ta'minlashda samarali logistika tizimi muhim strategik omil hisoblanadi. Tadqiqot natijalaridan kelib chiqqan holda quyidagi asosiy xulosalarga kelindi:

Kichik korxonalarning ko'pchiligida logistik faoliyat tizimli tashkil etilmagan bo'lib, bu mahsulot aylanish jarayonlarining sekinlashuvi, ortiqcha xarajatlarning va past xizmat ko'rsatish sifatiga olib kelmoqda.

Transport vositalarining eskirganligi, omborxonalarning texnik jihatdan zamonaviy emasligi va axborot texnologiyalarining cheklanganligi logistika samaradorligini pasaytirmoqda.

Logistika sohasida malakali kadrlar yetishmasligi, ta'lim va amaliyot o'rtasidagi uzilishlar mavjud.



Logistika xarajatlari kichik korxonalar uchun jiddiy yuk bo'lib qolmoqda; bu xarajatlar korxona daromadlarining 20–25 foizini tashkil qilmoqda.

Xalqaro tajribalar shuni ko'rsatmoqdaki, kichik biznesda logistika tizimini rivojlantirish davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanmasa, sektor uzoq muddatda raqobatbardosh bo'la olmaydi.

O'zbekistonda kichik korxonalar logistika tizimini rivojlantirish, optimallashtirish va zamonaviylashtirish bo'yicha quyidagi amaliy takliflar ishlab chiqildi:

Kichik korxonalar ehtiyojlariga mos keladigan zamonaviy logistika markazlarini hududlarda bosqichma-bosqich tashkil etish.

Yengil sanoat va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash uchun kichik omborlar tarmog'ini barpo etishga davlat-xususiy sheriklik asosida investitsiyalar jalb etish.

Kichik biznes subyektlariga transport vositalarini lizing asosida yangilash uchun imtiyozli moliyaviy mexanizmlarni yaratish.

Mahsulot yetkazib berish tizimini avtomatlashtirish (masalan, GPS monitoring, ruxsatnomalar tizimi) uchun subsidiyalar ajratish.

Logistika va ta'minot zanjiri boshqaruvi bo'yicha o'rta va oliy ta'lim muassasalarida maxsus kurslar ochish.

Kichik korxona xodimlari uchun qisqa muddatli amaliy seminarlarga davlat grantlarini joriy qilish.

Elektron ombor boshqaruvi, avtomatlashtirilgan buyurtma tizimlari, mijozlar bilan aloqani boshqarish (CRM) kabi platformalarni kichik korxonalar uchun qulay va arzon variantda ishlab chiqish.

"Raqamli logistika" dasturini ishlab chiqib, kichik bizneslar uchun bosqichma-bosqich joriy etishni moliyaviy va texnik qo'llab-quvvatlash.

Turkiya, Xitoy, Polsha kabi mamlakatlardagi kichik biznes logistikasi tajribasini chuqur o'rganish va mahalliyashtirish.

Xalqaro moliyaviy institutlar (Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki va b.) bilan hamkorlikda logistika infratuzilmasini rivojlantirish loyihalarini boshlash.

"Kichik biznesda logistika xizmatlarini qo'llab-quvvatlash"ga qaratilgan alohida davlat dasturini ishlab chiqish.

Maxsus logistik preferensiyalar (bojxona soddalashtirish, soliq imtiyozlari) orqali kichik korxonalarning tashqi bozorlar bilan integratsiyasini kuchaytirish. Mazkur yuqorida qayd etilgan takliflar o'tish davridagi iqtisodiyotda kichik korxonalarning logistika tizimini rivojlanishiga turtki bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining transport-logistika tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-28-sonli Qarori. – T.: 2025-yil 27-yanvar.
2. А.С.Кучкаров,Г.Б.Бабаходжаев,Д.Н.Ишманова Логистика.Т-2020.
3. Tirkashev, F. (2023). Intellekual mulkni boshqarish jarayonlari o'rganishning nazariy muammolari.–YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT,–1(11-12).
4. Tirkashev, F., & Musurmonov, N. (2024). Global iqtisodiy rivojlanish sharoitida yashil iqtisodiyot muammolari.–YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT,–2(1).
5. Tirkashev, F., & Toshpulatova, K. (2024). "Yashil" iqtisodiyot: konsepsiyaning shakllanishi va asosiy kategoriyalari.–YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT,–2(1).
6. Tirkashev, F., & Zarmaxmatov, N. (2024). Raqamli iqtisodiyotning zamonamizdagi bugungi o'rni.–YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT,–2(1).
7. Tirkashev, F., & Xo'jaqulov, I. (2024). Jahon iqtisodiyoti va xalqaro savdo munosabatlari.–YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT,–2(1).
8. Tirkashev, F., & Raxmatullayev, S. (2024). Davlat-xususiy sherikchiligini rivojlantirishda klasterlarning ahamiyati.–YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT,–2(1).
9. Xamdamova, N., Tirkashev, F., Sayfullayev, A., & Erkinov, S. (2024). Chorvachilikning mamlakat iqtisodiyotidagi ahamiyati va uning rivojlanishi.–YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT,–2(1).
10. Tirkashev, F., & Asomiddinov, H. (2024). Mahalliy soliqlar va mahalliy yig'implarning iqtisodiy mohiyati.–YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT,–2(1).
11. Tirkashev, F., & Isaxonov, S. (2024). Qishloq xo'jaligini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari.–YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT,–2(1).
12. Tirkashev, F., & Asomiddinov, H. (2024). Tijorat tashkilotlarining investitsiya faoliyati.–YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT,–1(1).
13. Tirkashev, F. M. (2025). INTELLEKTUAL MULK TOIFASINI TAVSIFLASH.–SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM,–3(32), 92-98.
14. Rahmiddin o'g, Y. J. R., & Tirkashev, F. M. (2025, January). "TURIZM SOHASINI JAMIYATGA TADQIQ QILISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI". In–INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE–(Vol. 3, No. 30, pp. 242-250).
15. Rahmiddin o'g, Y. J. R., & Tirkashev, F. M. (2024). AGROTURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING XALQARO AMALIYOTI.–JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH,–7(12), 70-77.



16. Rahmiddin o'g, Y. J. R., & Tirkashev, F. M. (2025). "TURIZM SOHASI KLASSTERLASHUVI SHAROITIDA INFRATUZILMANING SAMARALI RIVOJLANISHI UCHUN USTUVOR VAZIFALARNI BELGILASH".-INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION,-3(35), 15-23.
17. Tirkashev, F. M., & Asomiddin o'g'li, A. H. (2025). MOLIYAVIY RESURLARNI BOSHQARISHDA INTELLECTUAL MULKNING AHAMIYATI.-MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS,-1(4), 421-427.
18. Rahmiddin o'g, Y. J. R., & Mahmudovich, T. F. (2024). O'ZBEKISTONDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDAGI MUAMMOLAR VA ULARNI HAL ETISH YO'LLARI.-TANQIDIY NAZAR, TAHLILYIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR,-1(1), 116-124.
19. Mahmudovich, T. F. O'ZBEKISTONDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDAGI MUAMMOLAR VA ULARNI HAL ETISH YO'LLARI.-"TOP IZLANUVCHI-2025" ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI, 116.
20. Tirkashev, F. M., & Abduvaliyev, A. U. (2025). Intellektual mulkning ishlab chiqarishdagi ahamiyati. *Yashil Iqtisodiyot va Taraqqiyot*, (2025/3), 524–581.
21. Tirkashev, F. M., & Jamshidov, I. J. (2025). Teoretiko-pravovaya xarakteristika ekonomicheskikh otnosheniy. *Yashil Iqtisodiyot va Taraqqiyot*, (2025/3), 313–317.
22. Tirkashev, F. M. (2025). Barqaror iqtisodiy o'sish va xizmatlar sohasini jadal rivojlantirishda intellektual mulkning asosiy muammolari va ularni hal etish yo'llari. *Xizmatlar sohasini strategik rivojlantirish orqali hududlarda barqaror iqtisodiy o'sish va aholi farovonligini oshirish imkoniyatlari* (pp. 219–221). Samarqand: Samarqand iqtisodiyot va servis instituti matbaa bo'limi.
23. Yaxshiliqov, J. R., & Tirkashev, F. M. (2025). Agroturizmni rivojlantirishda yashil iqtisodiyotning o'rni. *Yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish yo'llari: Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari* (pp. 146–149). Khwarezm publication MCHJ.
24. Yaxshiliqov, J. R., & Tirkashev, F. M. (2025). Causes, economic essence and forms of the emergence of agrarian tourism. *Manuscripts on the Pedagogical Research: Values and Modernity*, 2(1), 1–9.
25. Yaxshiliqov, J. R., & Tirkashev, F. M. (2025). Turizm sohasi klasterlashuvi sharoitida infratuzilmaning samarali rivojlanishi uchun ustuvor vazifalarni belgilash. In *Innovative Developments and Research in Education: A Collection of Scientific Works of the International Scientific Online Conference (23rd January, 2025)* (Part 35, pp. 25–33). Ottawa, Canada: CESS.
26. Tirkashev, F. M., & Turdiyev, A. A. (2024). Tashkilotlarning kapital tarkibini shakllantirishga ta'sir qiluvchi intellektual omillar. *International Journal of Education, Social Science & Humanities*, 1064–1073. Finland: Academic Research Science Publishers.
27. Lex.uz.
28. Stat.uz.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. aprel. maxsus son / № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
